

## **HUQUQSHUNOSLIK FAOLIYATIDA TANQIDIY FIKRLASHNING AHAMIYATI**

Ahmedov Abrorjon Ahrorjon o‘g‘li  
Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi  
“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi  
1-bosqich 37-guruh o‘quvchisi  
Telefon: +998996138494  
Ahmedovabrorjon8494@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada muallif tanqidiy fikrlash tushunchasi haqida olimlar tomonidan bildirilgan fikr mulohazalar, uning ahamiyati va o‘ziga xos jahatlari, huquqshunoslik faoliyatida tanqidiy fikrlashning ahamiyati borasida fikrlar yuritgan.

**Kalit so‘zlar:** tanqidiy fikrlash, tafakkur, mushohada, tergov versiyasi, dalillar maqbulligi, surushtiruv, dastlabki tergov, sud jarayoni.

**Аннотация:** в этой статье автор рассуждал о понятии критического мышления, высказанных учеными, о его значении и специфике, о значении критического мышления в юридической деятельности.

**Ключевые понятия:** критическое мышление, мышление, наблюдение, версия расследования, приемлемость доказательств, дознание, предварительное расследование, судебное разбирательство.

**Abstract:** In this article, the author discussed the concept of critical thinking expressed by scientists, its meaning and specifics, and the importance of critical thinking in legal activity.

**Key concepts:** critical thinking, thinking, observation, version of the investigation, admissibility of evidence, inquiry, preliminary investigation, trial.

Ma’lumki, fikr yuritish, tafakkur qilish va shu orqali jamiyatdagi u yoki bu voqeliklarga munosabat bildirish faqat insongagina xos xususiyat bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq dolzarb muammolarning yechimi mustaqil fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan yangi avlodga bog‘liq. Insonning barcha mavjudotlardan yuksak jihat – uning fikrlash qobiliyatidir. Zero, insonlar bir-birlari bilan o‘ziga xos tafakkuri, mushohadalar, fikr yuritishlari, mustaqil fikrlash qobiliyatları bilan ajralib turadilar.

Ushbu insonga xos bo‘lgan qobiliyatning bir ko‘rinishi bo‘lgan tanqidiy fikrlash ham o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning ijobiy



ravnaqi uchun xizmat qiladi. Bunda albatta, tanqidiy fikrlash sog‘lom fikr mantig‘iga mos bo‘lishi, qandaydir g‘arazo‘ylik, ko‘rolmaslik yoki ig‘vo kabi illatlardan holi hamda xolis va shaffof bo‘lishi talab etiladi.

Turli ilmiy manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, unga turlicha munosabatlar bildirilganiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, tanqidiy fikrlash bu – o‘z-o‘zini boshqaradigan, o‘zini o‘zi tarbiyalaydigan, o‘zini o‘zi nazorat qiladigan va o‘zini o‘zi to‘g‘irlaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat’iy me’yorlariga rozi bo‘lish va ularni hushyorlik bilan qo‘llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini egallashni, shuningdek, tabiatimizga xos egosentrizm va sotsosentrizmni yengib o‘tishni talab qiladi.<sup>1</sup> Tanqidiy fikrlashning ijodiy manbalari, uning faolligi yaxshi xotiralashga imkon yaratishi, narsalar, jarayonlar va hodisalar mohiyatiga chuqur kirib borishiga yordam berishi qadim zamonlarga borib taqaladi. Tanqidiy fikrlash atamasi Xalqaro terminologiya tizimida yunon fikrlashning “tanqidiy” shakli sifatida yuritiladi, “kritikos” – “tanqid”, “baholash”, “imtihon” va boshqalar. Ko‘p ma’noli so‘zdan kelib chiqqan; bu yerda “tanqid” tushunchasi kundalik hayotda “ayplash” ma’nosini anglatmaydi, balki aqliy qobiliyat ma’nosini bildiradi va “baholash”, “aniqlash”, “hukm qilish”, “ajratish qobiliyati” kabi ma’nolarga ega. Tanqidiy fikrlashning intellektual asoslari, shuningdek, etimologiyasi ham juda qadim zamonlarga borib taqaladi.

Tanqidiy fikrlash borasida Farobi, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk mutafakkirlarimiz o‘z asarlarida o‘z qarashlarini bayon etganlar.

Farobi tanqidiy fikrlashni tashkil etish masalalari bo‘yicha bir qator muhim tavsiyalarni ishlab chiqdi. Uning fikricha, yaxshi nazoratchi bo‘lish uchun uch narsaga rioya qilish zarur:

- 1) ma’lum bir fan asosiga yotgan barcha tamoyillarni yaxshi bilish kerak;
- 2) ushbu aniq fanga doir mana shu tamoyil va ma’lumotlardan zarur xulosalar chiqara olish kerak, ya’ni muhokama etish qoidalarini egallash lozim;
- 3) haqiqatni yolg‘ondan farqlash va xatolarni to‘g‘rilash uchun xato nazariyalarni inkor etish va boshqa mualliflar mulohazalarini tahlil etish zarur.<sup>2</sup>

Tanqidiy fikrlash – odamning kelib tushayotgan axborotni, jumladan, o‘z mulohazalarini shubha ostiga olish qobiliyatidir. Muayyan jamiyatda tanqidiy

<sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanqidiy\\_fikrlash](https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanqidiy_fikrlash).

<sup>2</sup> Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: “O‘qituvchi”, 1996.



fikrlash darajasiga o‘tish ushbu jamiyatning fuqarolik rivojlanishining boshlanishi uchun zarur shartdir, degan fikr mavjud.<sup>3</sup>

Bundan tashqari yana bir ilmiy soha mutaxassisining fikrlariga ko‘ra, tanqidiy fikrlash – bilimni o‘zlashtirish va mustaqil fikrlashning yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsning voqeа, hodisa, borliqni obyektiv idrok etish imkoniyatini kengaytiruvchi aqliy hodisadir. Tanqidiy fikrlashda g‘oyalar va ularning ahamiyati ko‘pfikrlilik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi hamda ular boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi.<sup>4</sup>

Yuqorida tanqidiy fikrlash haqida bir qator mulohazalar bilan tanishib chiqdik, demak tanqidiy fikrlash mantiqiy xulosalarni qurish, izchil mantiqiy modellarni yaratish va hukmni rad etish, u bilan kelishish yoki vaqtincha ko‘rib chiqishni kechiktirish bilan bog‘liq ongli qarorlarni qabul qilish bilan tavsiflanadi. Mazkur ta‘riflarning barchasi muayyan kognitiv vazifani hal qilishga yo‘naltirilishi lozim bo‘lgan ruhiy faollikni ifodalaydi. Tanqidiy fikrlash uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalar majmuasiga kuzatish, izohlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish qobiliyati va baho berish qobiliyati kiradi. Tanqidiy fikrlash mantiqni qo‘llaydi hamda asoslilik, aniqlik, ahamiyatlilik, teranlik, ko‘lam va adolatlilik kabi metabilim va ziyolilikning keng mezonlariga suyanadi. Ijodiy farazlar, qadriyat munosabati va kam darajada aniq emotSIONallik ham tanqidiy fikrlashning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash uchun insonda quyidagilar bo‘lishi kerak:

- o‘ziga xos nuqtayi nazarga ega bo‘lish;
- bir fikrdan boshqasining afzalligini asoslash mahorati;
- murakkab muammolarni yechish mahorati;
- bahsni dalillab olib borish;
- yagona fikrni ishlab chiqish uchun birgalikda ishlash mahorati;
- qarashlar va tasavvurlarga hayotiy tajriba qanday ta‘sir qilishini tushunish.

Darhaqiqat huquqshunoslarning faoliyatida tanqidiy fikrlash juda muhimdir. Ayniqasa, bu narsa sodir etilgan jinoyatlarni to‘g‘ri, to‘liq va o‘z vaqtida ochish jarayonida, ya’ni surushtiruv, dastlabki tergov va sud jarayonida beqiyos ahamiyatga ega. Odatda, jinoyat sodir etgan shaxslar, albatta, jinoyati izlarini yashirishga, voqelikni insenirovka qilishga, tergovni va sudni chalg‘itishga qaratilgan faol

<sup>3</sup> D.Qarajayeva. Huquqshunos faoliyatida tanqidiy fikrlashning ahamiyati/Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences / volume 2 | issue 8. 216-bet.

<sup>4</sup> F.Xodjiyeva. O‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish va uning muhim jihatlari / ZAMONAVIY TA’LIM / SOVREMENNOE OBRAZOVANIE 2017, 6. 44-bet.



choralarni ko‘radi. Bunda tergovchi tergov versiyasini yuritishda sodir etilgan jinoyat yuzasidan bir nechta taxminlarni ilgari surishi va ularni topilgan dalillar bilan chuqur va puxta tekshirib borishlari talab etiladi.

Xuddi shu tanqidiy fikrlash va o‘rganish nafaqat jinoyat ishlarida surushtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan qo‘llaniladi, balki fuqarolik, ma’muriy yoki iqtisodiy sud ishlarini yuritish jarayonilarida advokatlar hamda sudyalar tomonidan ham olib boriladi. Chunki da’vogar yoki javobgarlar o‘zлari ilgari surayotgan da’vo predmeti va asoslarini keltirayotgan vajlari bilan asoslashga imkonli boricha harakat qiladilar, bunda dalillarning maqbulligiga va soxta bo‘lmasligiga sinchkovlik bilan ahamiyat berishlari, odil sudlovnning maqsadiga erishishlari, qonun ustuvorligiga bo‘lgan xalq ishonchini ta’minlanishiga so‘zsiz erishishlari lozim.

Buning uchun esa bo‘lajak huquqshunoslardan o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha bilimlarni, qabul qilingan qonun normalarini mukammal o‘rganishlari va tanqidiy fikrlashni egallashlari talab qilinadi. Yangi axborotlarga ro‘para kelar ekan, yuridik texnikum o‘quvchilari hamda oliy ta’lim talabalar uni mustaqil ravishda baholashi, unga har xil nuqtayi nazardan qarashi, undan o‘z ehtiyoj va maqsadlari yo‘lida foydalana olish imkoniyati to‘g‘risida xulosa yasay olishlari kerak. Haqiqiy tanqidiy fikrlaydigan odam bo‘lib yetishish uchun o‘quvchilar va talabalar ijodiy fikrlab o‘zini sinab ko‘rishi va bunga oid malakalarni egallashi darkor.



### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanqidiy\\_fikrlash](https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanqidiy_fikrlash).
3. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: “O‘qituvchi”, 1996.
4. D.Qarajayeva. Huquqshunos faoliyatida tanqidiy fikrlashning ahamiyati/Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences / volume 2 | issue 8. 216-bet.
5. F.Xodjiyeva. O‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish va uning muhim jihatlari / ZAMONAVIY TA’LIM / SOVREMENNOE OBRAZOVANIE 2017, 6. 44-bet.
6. Huquqiy ko‘nikmalar va metodologiya. [Matn]: darslik. / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2022. – 232 b.